

«ТУРКЕСТАНСКИЕ ВЕДОМОСТИ» GAZETASINING TASHKIL ETILISHI VA UNDA SAMARQAND IJTIMOY-IQTISODIY HOLATINING YORITILISHI

**Rustamov Sh.S (SamDU magistranti)
Ergashev B.E (SamDU ilmiy rahbar)**

Maqolada Samarqand ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati haqida «Туркестанские ведомости» gazetasida muntazam yoritilib borishi va gazetaning tashkil etilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

1867-yil 11-iyulda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarining vaqtinchalik boshqaruvi o'rniga Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. Uning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman hududni har tomonlama tadqiq qilish uchun Rossiyadan tadqiqotchi olimlarni jalb qilib, mintaqani, undagi mahalliy fanlarni ham tadqiq qildi. Barcha ilmiy-tadqiqot ishlarini birlashtirib olib borish maqsadida K.P.Kaufman taniqli statist S.A.Idarov boshchiligidagi maxsus organ tashkil qildi¹. Turkiston general-gubernatorligi harbiy-xalq boshqaruvining №75 buyrug'iga binoan 1869-yil 6-noyabrdan «Туркестанские ведомости» gazetasi tashkil qilindi. Gazetani tashkil qilish va chop etish ishlari juda ko'p vaqtni oldi. Bu ish va uning barcha javobgarligi gazetaning birinchi muharriri shtab-kapitani N.A.Mayev va uning yordamchisi, maslahatchisi A.K.Lazerev zimmasiga yuklatilgan edi. Ular Sankt-Peterburgda bu soha bo'yicha amaliyotga ega bo'ldilar. Bu tayyorgarlik ishlari natijasida deyarli bir yil o'tib ketdi. 1870-yil mart oyida N.A.Mayev va A.K.Lazerev Toshkentga qaytdi. Va 1870-yil 28-aprelda (10-may) Toshkentning harbiy-okrug shtabi nashriyotidan gazetaning birinchi soni chiqarildi. Gazetada shu davr gubernatorlik va viloyatlardagi jarayonlar xabar qilingan (nashr etilgan). Turkistonda gazeta harbiy va general gubernator maqsadlariga mos ravishda tahrir qilindi².

Gazeta mustamlaka hokimiyatining Turkiston general-gubernatorligidagi mahalliy siyosatini ko'rsatib, mahallay aholini ruslashtirish maqsadida faqat rus tilida nashrdan chiqariladigan bo'ldi. Bu mahalliy hududning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy rivojlanishini o'zida aks ettiradigan gazeta edi.

Tahlil qilish mumkinki, gazetaning Turkistonda rus tilida nashr etilishi XIX asrning ikkinchi yarmida sinfiy, siyosiy, ideologik kurashda va rus davlatining rolini ko'rsatishda asosiy qurol bo'lib xizmat qildi. Bu ham rus imperiyasining mustamlaka siyosati elementlaridan hisoblanar edi. General-gubernator K.P.Kaufmann va podsho hokimiyatining maqsadi Markaziy Osiyoni keng va qulay yo'l orqali ochish va o'rganish edi. Gazeta hududni

¹ Отдельное мнение члена Туркестанского Статистического комитета С.А.Идарова // Ежегодник. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып I. - СПб, 1872.- С.229

² Туркестанские ведомости // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907

boshqarishda qanday katta rol egallashini bilgan K.P.Kaufman 5 yil davomida gazetaning chop etilishini o'z nazorati ostiga olgan holda faoliyat yuritgan. Faqatgina 1974-yilda K.P.Kaufman muharrir N.A.Mayevga gazetada muhim ma'lumotlarni chop etish va bu haqda hisobot berishini topshirdi. Bu hisobotlar har hafta juma kuni ya'ni, kechasi soat sakkizdan boshlab tuni bilan nashr etilishini bildirar edi³.

Gazeta 1893-yilga qadar haftada bir marta, 1893-yildan esa haftada ikki marta, 1903-yildan haftada uch marta, 1904-yildan haftada to'rt marta, 1907-yildan boshlab esa har kuni nashr etilgan va 1917-yilga qadar chiqarilgan. Gazeta tiraji 1000-2500 nusxani tashkil etgan.

Gazeta yuqorida ta'kidlaganimizdek podsho hukumatining Turkiston general gubernatorligidagi bosh gazetalaridan biri edi. Gazetaning bosh ofisi Toshkenda edi. Gazetaning birinchi muharriri M.Grulyov bo'lgan. Bundan tashqari gazetada 1892-1899-yillarda A.P.Romanovich, 1901-1906-yillarda N.G.Mallitskiy, 1913-yilgacha i.D.Yagella kabilar muharrir bo'lib ishlagan.

«Туркестанские ведомости» gazetasida o'lkadagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy holat haqida ma'lumotlar berib borilgan. Bu ma'lumotlardan viloyatlar, okruglar haqida, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy holati haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shunday ma'lumotlardan Samarqand iqtisodiy hayotiga oid va uning rivojlanishiga oid bo'lganlari ham bir qancha hisoblanadi.

«Туркестанские ведомости» gazetasining 1872-yil 47-sonida, 1874-yil 19-sonida, 1875-yil 4-sonida, 1895-yil 70-sonida, 1902-yil 90-sonida, 1917-yil 11-may sonida Samarqand hududi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti undagi iqtisodiy rivojlanish haqida ma'lumotlar nashr etilgan⁴ bo'lib, ularning barchasi o'lka boshqaruvchilari maqsadiga mos rus tilida edi.

Gazetada Samarqand viloyatida ishlab chiqaruvchi kuchlar haqida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ham ma'lumotlar nashr etilgan. Misol sifatida «Туркестанские ведомости» gazetasidning 1902-yil 90-son 10-noyabr nashrida ishlab chiqaruvchi kuchlar ishchilarning ijtimoiy holati haqida shunday ma'lumot berilgan: “Zavodlarimizda yotib davolanishi u yoqda tursin hatto dastlabki yordam va qatnab davolanishi uchun ham sharoit yaratilamagan. Qisqasi bizning zavodlarimizda tibbiy yordan ko'rsatish butunlay yo'q desa ham bo'ladi”⁵.

Shunday xulosa chiqarish mumkinki, gazetada o'lka iqtisodiy-ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar mustamlakachi hukumat maqsadlariga mos ravishda nashr etilib ommaga taqdim etilgan. Bu ma'lumotlar o'z navbatida

³ Добромислов А. Ташкентская пресса // Средняя Азия. 1910. №9, -С.146-148.

⁴ G'afforov Sh.S.-Mustamlaka davrida samarqandda boshqaruv tizimi va sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi. Samarqand 2011/ 101-b/

⁵ «Туркестанские ведомости» . Т.: 1902. №90/10-ноябр.

o'lkani har bir ijtimoiy-iqtisodiy rayonlari, viloyatlarining rivojlanishi yoki pasayishi bilan bog'liq bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Отдельное мнение члена Туркестанского Статистического комитета С.А.Идарова// Ежегодник. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып I. - СПб, 1872.- С.229
2. Туркестанские ведомости // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907
3. Добромыслов А. Ташкентская пресса // Средняя Азия.1910. №9, - С.146-148
4. G'afforov Sh.S.-Mustamlaka davrida samarqandda boshqaruv tizimi va sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi. Samarqand 2011/ 101-b/
5. «Туркестанские ведомости» . Т.: 1902. №90/10-noyabr.